Ustoz–şogird munosabatlari pedagog va ta'lim oluvçi örtasidagi ta'limiy, tarbiyaviy, ijtimoiy hamda axloqiy aloqalarni qamrab oluvçi köp qirrali pedagogik jarayondir. Mazkur munosabatlar öqituvçining bilim beruvçi va tarbiyalovçi sifatidagi faoliyati bilan bir qatorda, öquvçining şaxsiy rivojlanişi, mustaqil fikrlaşi va ijtimoiy munosabatlarga kirişişiga ham xizmat qiladi.

Tarixiy jihatdan pedagogik munosabatlarning şakllanişi jamiyatda bola şaxsiga nisbatan mavjud qaraşlar bilan bevosita boğliq bölgan. An'anaviy ta'lim tizimlarida öqituvçi ta'lim jarayonining asosiy boşqaruvçisi sifatida e'tirof etilgan, öquvçidan esa belgilangan talablarga rioya qiliş kutilgan.

Keyinçalik insonparvar pedagogik qaraşlarning rivojlanişi natijasida bolaga ta'lim jarayonining faol iştirokçisi sifatida munosabatda böliş ğoyasi şakllandi. Xususan, Yan Amos Komenskiy ta'limni öquvçining yoş xususiyatlari, qiziqişlari va tabiiy rivojlaniş qonuniyatlariga muvofiq taşkil etiş zarurligini ilgari surgan. XX asr oxiriga kelib esa bola huquqlarini himoya qilişga qaratilgan xalqaro huquqiy yondaşuvlar pedagogik munosabatlarning mazmuniga sezilarli ta'sir körsatdi.

1989-yilda qabul qilingan BMTning Bola huquqlari töğrisidagi konvensiyasi ta'lim muhitida bolaning şa'ni, qadr-qimmati va xavfsizligini ta'minlaşga oid umume'tirof etilgan tamoyillarni mustahkamladi [1].

Şu bilan birga, öquvçi huquqlarini ta'minlaş öqituvçining kasbiy mavqeini pasaytiriş yoki uning pedagogik talablarini çeklaş sifatida talqin etilmasligi maqsadga muvofiq. Pedagog va öquvçining özaro huquq hamda majburiyatlarini uyğunlaştiriş ta'lim jarayonida barqaror munosabatlarni şakllantirişga xizmat qiladi.

D.L. Roorda, H.M.Y. Koomen, J.L. Spilt va F.J. Oort tomonidan 99 ta tadqiqot natijalari asosida amalga oşirilgan metatahlilda öqituvçi va öquvçi örtasidagi ijobiy emotsional munosabatlar öquvçilarning ta'lim jarayonidagi faol iştiroki va akademik natijalari bilan boğliq ekani aniqlangan [7].

Uşbu natijalar pedagogik muloqot sifati öquvçilarning nafaqat xulq-atvori, balki öqişga munosabati, motivatsiyasi va öquv faolligi bilan ham boğliq ekanini körsatadi.

J. Yoon va M. Rönnlund Finlyandiya hamda Janubiy Koreya maktablarida pedagogik nazorat va öquvçi mustaqilligi örtasidagi munosabatlarni örganib, ta'lim jarayonida mazkur ikki omilning mutanosibligini ta'minlaş muhimligini qayd etgan [8]. Mualliflarning tahliliga köra, pedagogning nazorat funksiyasi va öquvçining mustaqil qaror qabul qiliş imkoniyati turli ta'lim muhitlarida öziga xos şakllarda namoyon böladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda ilmiy-nazariy tahlil, tarixiy-pedagogik yondaşuv, qiyosiy tahlil, normativ-huquqiy hujjatlarni örganiş, tizimlaştiriş va umumlaştiriş metodlaridan foydalanildi.

Tadqiqotning nazariy manbalarini pedagogik munosabatlar, ta'lim muhiti, öqituvçining kasbiy faoliyati va öquvçilar xavfsizligiga bağişlangan ilmiy işler taşkil etdi. Empirik ma'lumotlarning ikkilamçi tahlili uçun OECD taşkilotining TALIS 2024 va PISA 2025 hisobotlari, şuningdek, bulling profilaktikasi böyiça ötkazilgan xalqaro tadqiqotlar natijalaridan foydalanildi.

Tadqiqot doirasida Finlyandiya, Yaponiya, Janubiy Koreya, Singapur va Qozoğiston ta'lim tizimlarida pedagogik munosabatlarni tartibga solişning huquqiy va taşkiliy yondaşuvlari örganildi. Özbekistonda pedagog maqomini mustahkamlaşga qaratilgan normativ-huquqiy asoslar xorijiy tajribalar bilan qiyoslanib, ularni umumiy örta ta'lim muassasalari şaroitida qöllaş imkoniyatlari tahlil qilindi.

Maqola mavjud ilmiy va rasmiy manbalar tahliliga asoslanadi. Taklif etilayotgan taşkiliy-pedagogik mexanizmlarning amaliy samaradorligini alohida tajriba-sinov tadqiqotlari orqali tekşiriş maqsadga muvofiq.

TAHLIL VA NATIJALAR

Şundan kelib çiqib, ustoz–şogird munosabatlarining pedagogik mohiyatini özaro boğliq uç jihat orqali ifodalaş mumkin.

Birinçisi - ta'limiy hamkorlik, ya'ni öqituvçi va öquvçining belgilangan ta'lim maqsadlariga erişiş yölidagi birgalikdagi faoliyati.

İkkinçisi - ijtimoiy-axloqiy munosabat, ya'ni pedagogik muloqotda özaro hurmat, adolat, mas'uliyat va şaxs qadr-qimmatini e'tirof etiş tamoyillarining amal qilişi.

Uçinçisi - pedagogik işonç, ya'ni öquvçining öqituvçi tomonidan adolatli munosabat, qöllab-quvvatlaş va xolis baholaşga işonişi, pedagogning esa öquvçining imkoniyatlari va rivojlaniş salohiyatini e'tirof etişidir.

Mazkur jihatlar birgalikda amal qilgandagina pedagogik munosabatlar barqaror va rivojlantiruvçi xususiyat kasb etadi.

Bugungi ta'lim muassasalarida öqituvçi va öquvçi munosabatlarining özgarişiga bir qator pedagogik, ijtimoiy va taşkiliy omillar ta'sir körsatmoqda.

Avvalo, pedagogik faoliyatning murakkablaşuvi öqituvçidan nafaqat fanni puxta bilişni, balki sinfni boşqariş, turli xarakter va ehtiyojga ega öquvçilar bilan samarali muloqot qiliş, nizoli vaziyatlarni bartaraf etiş hamda ota-onalar bilan hamkorlik örnatiş könikmalarini ham talab qilmoqda.

TALIS 2024 natijalariga köra, OECD mamlakatlari böyiça öqituvçilarning 52 foizi ma'muriy işler hajmini, 45 foizi sinfda intizomni ta'minlaşni kasbiy stress omillari sifatida körsatgan. Ayniqsa, beş yilgaça iş stajiga ega pedagoglarning 55 foizi uçun sinfda intizomni ta'minlaş stress manbai hisoblanadi. Tajribali öqituvçilarda mazkur körsatkiç 41 foizni taşkil etgan [3].

Bu natijalar pedagoglarning kasbiy tayyorgarligida sinf boşqaruvi, pedagogik muloqot va murakkab vaziyatlarda qaror qabul qiliş könikmalarini şakllantirişga alohida e'tibor qaratiş zarurligini körsatadi.

Y. Yang, L. Qin va L. Ning tomonidan AQŞ, Angliya, Janubiy Koreya hamda Meksika ma'lumotlari asosida ötkazilgan tadqiqotda maktabdagi zöravonlik holatlari öqituvçilarning kasbiy faollik darajasi bilan salbiy boğliq ekani aniqlangan. Şu bilan birga, öqituvçining öz kasbiy imkoniyatlariga işonçi va maktab jamoasidagi ijobiy munosabatlar uşbu salbiy ta'sirni yumşatişi mumkinligi körsatilgan [9].

Mazkur holat pedagogik nizolarni faqat intizomiy çoralar vositasida hal etiş yetarli emasligini anglatadi. Nizolarning oldini oliş uçun öqituvçining kasbiy barqarorligi, öquvçilarning ijtimoiy-emotsional könikmalari va maktab jamoasidagi hamkorlik munosabatlarini birgalikda rivojlantiriş talab etiladi.

Şu nuqtayi nazardan, pedagogik munosabatlarga ta'sir etuvçi asosiy omillarni quyidagi guruhlarga ajratiş mumkin:

1. **Pedagogik omillar** - öqituvçining kasbiy kompetentligi, sinfni boşqariş mahorati, pedagogik odob va muloqot madaniyati.
2. **Ijtimoiy omillar** - oila va maktab hamkorligi, jamoatçilik munosabati, pedagog kasbining ijtimoiy nufuzi.
3. **Psixologik omillar** - öquvçining yoş va individual xususiyatlari, emotsional holati, pedagogning stressga bardoşliligi.
4. **Taşkiliy omillar** - maktabda psixologik xizmat, murabbiylik, nizolarni hal etiş va pedagoglarni qöllab-quvvatlaş tizimining mavjudligi.

5. **Huquqiy omillar** - pedagog va öquvçining huquqlari, majburiyatlari hamda xavfsizligini ta'minlovçi qonunçilik mexanizmlari.

Uşbu omillarning özaro boğliqligi ustoz–şogird munosabatlarini yaxşilaşda kompleks pedagogik yondaşuv zarurligini belgilaydi.

Ta'lim tizimi rivojlangan mamlakatlar tajribasi pedagogik munosabatlarni tartibga solişning yagona universal usuli mavjud emasligini körsatadi. Mamlakatlar ijtimoiy-madaniy xususiyatlari va ta'limni boşqariş an'analariga muvofiq turli taşkiliy hamda huquqiy mexanizmlardan foydalanadi.

Finlyandiya tajribasi pedagogik munosabatlarni hamkorlik va öquvçi mustaqilligini qöllab-quvvatlaş asosida taşkil etişga e'tibor qaratişi bilan ahamiyatlidir. Mazkur ta'lim tizimida öquvçilar bilan işlaş mas'uliyati faqat sinf öqituvçisi zimmasiga yuklatilmay, maktabning boşqa pedagogik va yordamçi mutaxassislari bilan taqsimlanadi [8].

Finlyandiyada işlab çiqilgan KiVa bullingga qarşi dasturi ham maktabda xavfsiz ijtimoiy muhitni şakllantirişda kompleks yondaşuvning amaliy namunasidir. A. Kärnä va hammualliflar tomonidan 78 ta maktabda 8 237 nafar öquvçi iştirokida ötkazilgan tadqiqot uşbu dasturning bulling va undan jabrlaniş holatlarini kamaytirişda ijobiy samara berişini körsatgan [10].

Şuningdek, H. Gaffney, D.P. Farrington va M.M. Ttofi tomonidan amalga oşirilgan metatahlilda maktablarda bulling profilaktikasi dasturlari umuman ijobiy natija berişi, biroq samaradorlik mamlakatlar va dasturlar kesimida farqlanişi aniqlangan [11].

Mazkur natijalardan kelib çiqib, Finlyandiya tajribasining muhim pedagogik jihati nizolar yuzaga kelgandan keyin ularni bartaraf etiş bilangina çeklanmasdan, salbiy munosabatlarning oldini oluvçi maktab muhitini şakllantirişga e'tibor qaratişdan iborat, degan xulosaga keliş mumkin.

Janubiy Koreya tajribasi pedagoglarning kasbiy huquqlarini himoya qiliş va ta'lim jarayonidagi mas'uliyat chegaralarini belgilaş jihatidan e'tiborga molik. Mamlakatda 2023-yil 21-sentabrda pedagoglarning huquqlari va qonuniy tarbiyaviy faoliyatini himoya qilişga qaratilgan törtta qonunga özgartirişlar qabul qilingan [15].

Uşbu yondaşuv pedagogik faoliyatda öqituvçining qonuniy talablari, ota-onalar bilan munosabatlar va ta'lim muassasasi rahbariyatining mas'uliyatini huquqiy jihatdan muvofiqlaştiriş zarurligini körsatadi.

Yaponiya tajribasida öquvçilar örtasidagi salbiy munosabatlarni erta aniql aş, röyxatga oliş va profilaktika çoralarini taşkil etişga katta ahamiyat beriladi. Yaponiya Ta'lim, madaniyat, sport, fan va texnologiyalar vazirligi ma'lumotlariga köra, 2024-moliyaviy yilda maktablarda 769 022 ta bulling holati qayd etilgan [12].

Mazkur körsatkiçning yuqoriligini faqat zöravonlik holatlari köpayişi bilan izohlaş töğri bölmaydi. Çunki murojaatlarni qayd etiş, aniql aş va hisobga oliş mexanizmlarining takomillaşuvi ham rasmiy statistikaga ta'sir körsatadi. Şu bois Yaponiya tajribasi maktab muhitidagi muammolarni yaşirmasdan, ularni tizimli monitoring qiliş muhimligini körsatadi.

Singapur tajribasida ta'lim muassasasi va oila örtasidagi hamkorlik munosabatlarini takomillaştiriş ustuvor ahamiyat kasb etadi. 2024-yilda yangilangan maktab va oila hamkorligiga oid tavsiyalarda pedagoglar va ota-onalar örtasida özaro hurmatga asoslangan muloqotni şakllantiriş, farzand tarbiyasida birgalikdagi mas'uliyatni kuçaytiriş hamda raqamli muhitda soğlom munosabatlarni rivojlantiriş belgilangan [13].

Qozoğiston tajribasi pedagog maqomini huquqiy jihatdan mustahkamlaş bilan tavsiflanadi. Mamlakatda 2019-yil 27-dekabrda qabul qilingan "Pedagog maqomi töğrisida"gi qonun pedagoglarning kasbiy huquqlari, ijtimoiy kafolatlari va faoliyatini himoya qilişga qaratilgan [14].

Xorijiy tajribalarni umumlaştiriş natijasida pedagogik munosabatlarni takomillaştirişning asosiy yönalişlarini quyidagi jadvalda ifodalaş mumkin.

1-jadval: **Xorijiy mamlakatlarda pedagogik munosabatlarni takomillaştiriş yondaşuvlarining qiyosiy tahlili**

Mamlakat	Asosiy yondaşuv	Pedagogik ahamiyati
Finlyandiya	Hamkorlikka asoslangan ta'lim muhiti va kompleks profilaktika	Özaro işonçni mustahkamlaş, öquvçilar mustaqilligi va xavfsizligini ta'minlaş
Janubiy Koreya	Pedagoglarning qonuniy faoliyati va kasbiy huquqlarini himoya qiliş	Öqituvçining kasbiy mavqei va ta'lim jarayonidagi huquqiy kafolatlarini kuçaytiriş
Yaponiya	Nizolar va bulling holatlarini erta aniql aş hamda monitoring qiliş	Salbiy holatlarning oldini oliş va öz vaqtida pedagogik yordam körsatiş
Singapur	Maktab va oila hamkorligini tartibga soliş	Ota-onalar va pedagoglar örtasida konstruktiv muloqotni rivojlantiriş
Qozoğiston	Pedagog maqomini qonunçilik asosida mustahkamlaş	Pedagogik faoliyatning huquqiy kafolatlari va ijtimoiy nufuzini oşiriş

Jadvalda keltirilgan yondaşuvlar turli mamlakatlarda pedagogik munosabatlar muammosiga huquqiy, taşkiliy va tarbiyaviy çoralarni özaro muvofiqlaştiriş orqali yondaşilayotganini körsatadi.

Şuningdek, xorijiy tajribalarni mahalliy ta'lim tizimiga töğridan-töğri köçiriş emas, balki ularni milliy qadriyatlar, pedagogik an'analar va ta'lim muassasalarining mavjud imkoniyatlariga moslaştiriş muhim hisoblanadi.

Özbekistonda pedagog şaxsiga hurmat, ustoz–şogird an'analarini davom ettiriş va ta'limning tarbiyaviy ahamiyatini kuçaytiriş milliy ta'lim siyosatining muhim yönalişlaridan hisoblanadi.

Özbekiston Respublikasining 2024-yil 1-fevralda qabul qilingan "Pedagogning maqomi töğrisida"gi O'RQ–901-sonli1 Qonuni pedagoglarning huquqlari, majburiyatlari va kasbiy faoliyatining asosiy kafolatlarini belgilab berdi. Unga köra, pedagogning huquqlari, şa'ni, qadr-qimmati va işçanlik obrösi davlat himoyasi ostida böladi [2].

Mazkur huquqiy asos pedagogik munosabatlarda öqituvçining kasbiy mustaqilligini ta'minlaş, uning qonuniy faoliyatiga aralaşuvlarning oldini oliş va ta'lim muassasalarida pedagoglar uçun munosib mehnat şaroitlarini yaratişga xizmat qiladi.

Şu bilan birga, pedagogning kasbiy huquqlarini himoya qiliş öquvçilarning xavfsizligi, qadr-qimmati va ta'lim oliş huquqini ta'minlaş bilan birgalikda amalga oşirilişi lozim.

OECD tomonidan e'lon qilingan PISA 2025 tadqiqotining Özbekiston böyiça natijalari ham maktab muhitini ilmiy tahlil qiliş uçun muhim ma'lumotlarni taqdim etadi.

Unga köra, Özbekistondagi 15 yoşli öquvçilarning 10 foizi oy davomida bir neça marta bulling holatlariga duç kelişini bildirgan. OECD böyiça mazkur körsatkiç örtaça 20 foizni taşkil etgan. Şuningdek, öquvçilarning 87 foizi tabiiy fanlar darslarida öqituvçi har bir öquvçining bilim olişiga qiziqiş bildirişini, 88 foizi esa zarurat tuğilganda öqituvçidan qoşimça yordam olişini ta'kidlagan [5].

Uşbu ma'lumotlar Özbekiston maktablarida pedagogik qöllab-quvvatlaşga oid ijobiy jihatlar mavjudligini körsatadi. Biroq ular öqituvçi va öquvçi munosabatlarida barça muammolar hal etilganini anglatmaydi. Çunki bulling körsatkiçlari, öqituvçiga nisbatan hurmatsizlik va pedagogik işonç turliça mazmunga ega bölgan, alohida örganilişi lozim bölgan hodisalardir.

Bundan taşqari, PISA 2025 natijalarida Özbekiston böyiça matematika va öqiş savodxonligi javoblarida ayrim nomuvofiqliklar aniqlangani sababli uşbu sohalardagi qiyosiy ball körsatkiçlarini talqin qilişda çeklovlar mavjud. Mazkur maqolada asosan maktab muhiti va öquvçilarning sörovnoma javoblariga oid ma'lumotlardan foydalanildi.

Demak, mamlakatimizda ustoz–şogird munosabatlarini takomillaştiriş uçun huquqiy va ma'naviy asoslar mavjud bölsa-da, ularni maktab darajasida aniq taşkiliy-pedagogik mexanizmlar bilan mustahkamlaş dolzarb vazifa bölib qolmoqda.

Xalqaro tadqiqotlar, xorijiy tajribalar va milliy ta'lim tizimining mavjud xususiyatlarini umumlaştiriş asosida umumiy örta ta'lim muassasalarida ustoz–şogird munosabatlarini takomillaştirişning özaro boğliq uç yönalişdan iborat taşkiliy-pedagogik yondaşuvini taklif etiş mumkin.

Birinçi yönaliş - **pedagogik muloqot va özaro hurmat madaniyatini rivojlantiriş.**

Mazkur yönaliş öqituvçi va öquvçi munosabatlarini adolat, özaro hurmat, mas'uliyat va işonç tamoyillari asosida taşkil etişni nazarda tutadi.

Bunda öqituvçilarning pedagogik muloqot kompetensiyalarini rivojlantiriş, öquvçilarning fikrini tinglaş, ularga nisbatan xolis munosabatda böliş, ta'limiy talablarni izçil qöllaş hamda rağbatlantiriş va mulohaza bildirişning pedagogik jihatdan maqbul usullaridan foydalaniş muhim hisoblanadi.

Öqituvçining kasbiy obrösi faqat uning rasmiy maqomi yoki intizomiy vakolatlari bilan emas, balki bilimdonligi, adolatliligi, muloqot madaniyati va öquvçilarning rivojlanişiga qoşayotgan hissasi bilan ham şakllanadi.

İkkinçi yönaliş - **pedagogik munosabatlarni taşkiliy va huquqiy jihatdan qöllab-quvvatlaş.**

Ta'lim muassasalarida öqituvçi, öquvçi va ota-onalarning özaro munosabatlariga oid tuşunarli hamda barça iştirokçilar uçun bir xil amal qiladigan içki qoidalar mavjud bölişi lozim.

Bunda pedagogik nizolar yuzaga kelganda murojaatlarni qabul qiliş, holatni xolis örganiş, tomonlarning fikrini eşitiş, zarur hollarda psixologik va huquqiy yordam körsatiş hamda tegişli qaror qabul qilişning aniq tartibi belgilab qoyilişi maqsadga muvofiq.

Ayniqsa, nizoli holatlarni hal etişda öqituvçi yoki öquvçini oldindan aybdor deb baholamaslik, vaziyatga xolis yondaşiş va taraflarning huquqlarini bir xil himoya qiliş tamoyili muhim ahamiyat kasb etadi.

Bunda sinf rahbari, maktab psixologi, direktor örinbosari va rahbariyat örtasida vazifalar taqsimotini aniq belgilaş zarur.

1 https://lex.uz/uz/docs/-6786401

Uçinçi yönaliş - **pedagogik munosabatlarni muntazam monitoring qiliş va profilaktika işlarini taşkil etiş.**

Mazkur yönaliş ta'lim muassasasidagi ijtimoiy-psixologik muhitni baholaş, pedagogik nizolarning kelib çiqiş sabablarini örganiş va profilaktik çoralarni rejalaştirişni öz içiga oladi.

Bunda öqituvçilar va öquvçilar örtasida anonim sörovnomalar ötkaziş, özaro işonç, xavfsizlik, adolatli munosabat va muloqot madaniyatiga oid körsatkiçlarni tahlil qiliş maqsadga muvofiq.

Monitoring natijalari asosida ehtiyoj mavjud sinflarda pedagogik muloqotni yaxşilaş, öqituvçilarning kasbiy kompetentligini rivojlantiriş va ota-onalar bilan hamkorlikni kuçaytirişga qaratilgan tadbirlarni taşkil etiş mumkin.

2-jadval: **Ustoz–şogird munosabatlarida özaro işonç muhitini şakllantirişning taşkiliy-pedagogik mexanizmlari**

Yönaliş	Asosiy mexanizmlar	Kutiladigan natija
Pedagogik muloqot	Muloqot madaniyati, adolatli munosabat, hamkorlikdagi ta'lim, individual yondaşuv	Öqituvçi va öquvçi örtasida özaro hurmat hamda işonçning mustahkamlanişi
Taşkiliy-huquqiy qöllab-quvvatlaş	İçki qoidalar, murojaatlarni xolis körib çiqiş, psixologik yordam, murabbiylik	Pedagogik nizolarni samarali hal etiş, iştirokçilar huquqlarining ta'minlanişi
Monitoring va profilaktika	Anonim sörovnomalar, pedagogik kuzatuv, xavf omillarini aniql aş, profilaktik tadbirlar	Salbiy munosabatlarni erta aniql aş va xavfsiz ta'lim muhitini şakllantiriş

Taklif etilayotgan yondaşuvning özига xos jihati şundaki, unda pedagogik munosabatlarni takomillaştiriş faqat öqituvçining şaxsiy mahoratiga boğlab qoyilmaydi. Aksinça, mazkur jarayon ta'lim muassasasining taşkiliy faoliyati, öqituvçilarning kasbiy tayyorgarligi, psixologik xizmat va huquqiy kafolatlar bilan uzviy boğliq holda qaraladi.

Uşbu yondaşuvni amaliyotga joriy etişda quyidagi ketma-ketlik maqsadga muvofiq hisoblanadi: dastlab ta'lim muassasasidagi pedagogik munosabatlarning mavjud holatini diagnostika qiliş, keyin aniqlangan ehtiyojlar asosida pedagogik çora-tadbirlarni rejalaştiriş, ularni amalga oşiriş hamda yakunda natijalarni qayta baholaş.

Baholaşda öquvçilarning pedagoglarga işonç darajasi, öqituvçilarning muloqot muhitidan qoniqişi, nizoli murojaatlar xususiyati, psixologik xavfsizlik va ota-onalar bilan hamkorlik körsatkiçlaridan foydalaniş mumkin.

Bunday yondaşuv pedagogik munosabatlar samaradorligini faqat subyektiv tasavvurlar asosida emas, balki muntazam kuzatiladigan körsatkiçlar orqali örganiş imkonini beradi.

XULOSA

Amalga oşirilgan ilmiy-nazariy va qiyosiy tahlillar asosida quyidagi xulosalarga kelindi.

Birinçidan, ustoz–şogird munosabatlari ta'lim jarayonining muhim pedagogik tarkibiy qismi bölib, ularning sifati öquvçilarning ta'limiy faolligi, şaxsiy rivojlanişi va maktab muhitidagi ijtimoiy munosabatlar bilan uzviy boğliqdir.

Ikkinçidan, zamonaviy ta'lim şaroitida öqituvçining kasbiy obrösini mustahkamlaş va öquvçilarning huquq hamda manfaatlarini ta'minlaş bir-biriga zid emas, balki özaro töldiruvçi pedagogik vazifalar hisoblanadi.

Uçinçidan, xorijiy mamlakatlar tajribasi pedagogik munosabatlarni yaxşilaşda huquqiy kafolatlar, maktab va oila hamkorligi, psixologik qöllab-quvvatlaş hamda nizolar profilaktikasini kompleks taşkil etiş muhimligini körsatdi.

Törtinçidan, Özbekistonda ustoz–şogird munosabatlarini rivojlantirişning milliy ma'naviy qadriyatlar va normativ-huquqiy hujjatlarga asoslangan imkoniyatlari mavjud. Ularning amaliy samaradorligini oşiriş pedagogik muloqot madaniyatini rivojlantiriş, taşkiliy qöllab-quvvatlaş va munosabatlar monitoringini tizimli yölga qoyişni talab etadi.

Beşinçidan, pedagogik muloqot, taşkiliy-huquqiy qöllab-quvvatlaş hamda monitoring va profilaktika yönalişlarini özaro muvofiqlaştiriş asosida taklif etilgan yondaşuv umumiy örta ta'lim muassasalarida özaro işonç muhitini şakllantirişga qaratilgan amaliy işlarni rejalaştiriş uçun metodik asos bölib xizmat qilişi mumkin.

Umuman olganda, ustoz–şogird munosabatlarini takomillaştirişning asosiy şarti öqituvçining kasbiy mavqei va öquvçining şaxsiy qadr-qimmatini birdek e'tirof etuvçi, özaro işonç, adolat va hamkorlikka asoslangan ta'lim muhitini şakllantirişdan iborat.

Foydalanilgan adabiyotlar röyxati:

1. United Nations. Convention on the Rights of the Child. Adopted by General Assembly Resolution 44/25, 20 November 1989. - New York: United Nations, 1989.
2. Özbekiston Respublikasining "Pedagogning maqomi töğrisida"gi Qonuni. 2024-yil 1-fevral, O'RQ–901-son. - Qonunçilik ma'lumotlari milliy bazasi. https://lex.uz/docs/-6786401
3. OECD. Results from TALIS 2024: The State of Teaching. - Paris: OECD Publishing, 2025. – 306 p. DOI: 10.1787/90df6235-en.
4. OECD. PISA 2025 Results (Volume I): Future-Ready Students. - Paris: OECD Publishing, 2026. - 377 p. DOI: 10.1787/73451bc5-en.
5. OECD. PISA 2025 Results (Volume I): Uzbekistan. Country Note. - Paris: OECD, 2026. - 10 p. https://www.oecd.org/en/publications/pisa-2025-results-volume-i-country-notes_2d4ff9ea-en/uzbekistan_f977081e-en.html
6. OECD. Results from TALIS 2024: Uzbekistan. Country Note. - Paris: OECD, 2025. https://www.oecd.org/en/publications/results-from-talis-2024-country-notes_e127f9e2-en/uzbekistan_96cdef5e-en.html
7. Roorda D.L., Koomen H.M.Y., Spilt J.L., Oort F.J. The Influence of Affective Teacher–Student Relationships on Students' School Engagement and Achievement: A Meta-Analytic Approach // Review of Educational Research. - 2011. - Vol. 81, No. 4. - P. 493–529. DOI: 10.3102/0034654311421793.
8. Yoon J., Rönnlund M. Control and agency in student–teacher relations: a cross-cultural perspective on Finnish and Korean comprehensive schools // Education Inquiry. - 2021. - Vol. 12, No. 1. - P. 54–72. DOI: 10.1080/20004508.2020.1744350.
9. Yang Y., Qin L., Ning L. School Violence and Teacher Professional Engagement: A Cross-National Study // Frontiers in Psychology. - 2021. - Vol. 12. – Article 628809. DOI: 10.3389/fpsyg.2021.628809.
10. Kärnä A., Voeten M., Little T.D., Poskiparta E., Kaljonen A., Salmivalli C. A Large-Scale Evaluation of the KiVa Antibullying Program: Grades 4–6 // Child Development. - 2011. - Vol. 82, No. 1. - P. 311–330. DOI: 10.1111/j.1467-8624.2010.01557.x.
11. Gaffney H., Farrington D.P., Ttofi M.M. Examining the Effectiveness of School-Bullying Intervention Programs Globally: A Meta-analysis // International Journal of Bullying Prevention. - 2019. - Vol. 1. - P. 14–31. DOI: 10.1007/s42380-019-0007-4.
12. Ministry of Education, Culture, Sports, Science and Technology of Japan. Survey on Problem Behavior, Non-attendance and Other Student Guidance Issues: FY2024 Results. - Tokyo: MEXT, 2025.
13. Ministry of Education, Singapore. Guidelines for School-Home Partnership: Raising a Happy, Confident, and Kind Generation Together. - Singapore, 2024.
14. Republic of Kazakhstan. On the Status of a Teacher. Law of the Republic of Kazakhstan No. 293-VI, December 27, 2019.
15. Ministry of Education, Republic of Korea. Four Acts for the Protection of Teachers' Rights Passed by the National Assembly. - Seoul, September 21, 2023.

13.00.00 Pedagogika fanlari
13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi
13.00.02 Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar böyiça)
13.00.03 Maxsus pedagogika
13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport maşğulotlari nazariyasi va metodikasi
13.00.05 Kasb-hunar ta’limi nazariyasi va metodikasi
13.00.06 Elektron ta’lim nazariyasi va metodikasi (ta’lim sohalari va bosqiçlari böyiça)
13.00.07 Ta’limda menejment
13.00.08 Maktabgaça ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
07.00.00 Tarix fanlari
19.00.00 Psixologiya fanlari
01.00.00 Fizika-matematika fanlari
02.00.00 Kimyo fanlari
03.00.00 Biologiya fanlari
09.00.00 Falsafa fanlari
10.00.00 Filologiya fanlari
11.00.00 Geografiya fanlari

MAKTABGAÇA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Aşurov
Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov
Musahhih: Alibek Zokirov
Sahifalovçi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №11(1)

© Materiallar köçirib bosilganda "Maktabgaça va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida körsatilişi şart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgaça va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan Özbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C–5669363 reyestr raqami tartibi böyiça röyxatdan ötkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toşkent şahar, Yunusobod tumani 19-mavze, 17-uy.